



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ergasheva Barno Nuriddin qizi

Oriental Universiteti Iqtisodiyot va
turizm fakulteti stajyor-o'qituvchisi

Xotamov Sardor

Oriental Universiteti Iqtisodiyot va
turizm fakulteti 101 -guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11399560>

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini innovatsion boshqarish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion boshqarishning nazariy asoslari to'g'risida fikrlar bildirilgan.


Kalit so'zlar: boshqarish, innovatsiya, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish, samaradorlik, ta'lim sifati, maktabgacha ta'lim

Abstract: Innovative management of pre-school educational organizations is one of today's urgent tasks. The article expresses opinions about the theoretical foundations of innovative management in preschool educational organizations.

Key words: management, innovation, organization, leadership, control, efficiency, quality of education, preschool education

Innovatsion menejment - innovatsion jarayonlar, innovatsion faoliyat, mazkur faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkiliy tuzilmalar va ularning xodimlarini boshqarish tamoyil, usul va shakllari to'plamidir. Boshqaruvning boshqa sohalarida bo'lgani kabi, u ham maqsadlarni belgilash va strategiyani tanlash; rejalashtirish, shartlarni belgilash va tashkil etish, ijro etish, direktorlik bilan tavsiflanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning individual rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashni tashkil etish o'quv jarayoni, uni rejalashtirish hamda bolalar bog'chasi faoliyatini dasturiy va uslubiy ta'minotga, mehnatni muhofaza qilish xizmati ishini tashkil etishga turli yondashuvlarni talab etadi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sifatiga o'zgaruvchan talablari maktabgacha ta'lim tashkilotini zamonaviy ta'lim kompleks dasturlari, texnologiyalari, usullaridan foydalanishga undashi kerak.

Hozirgi zamonda "innovatsiya" tushunchasi biron bir turdagi faoliyatni tapkibiy jihatdan yangilanishini, tubdan o'zgartirilishini ifoda etadi. Mavjud narsaning yangi holatga o'tishi yoki yangicha sifat kasb etishi bilan bog'liq jarayon innovatsiya sifatida e'tirof etiladi. Bu jarayonni ba'zida yangilikning amaliyotga joriy etilishi deb ham atashadi. Innovatsiyalar dastavval insonlar





ongida mavjud reallik bilan uning ideal holati o'rtasidagi tafovut sifatida shakllanadi.

Aksariyat xollarda innovatsion g'oyalar tez o'sib borayotgan ehtiyojlar bilan nisbatan sust rivojlanayotgan ishlab chiqarish tizimining potensial imkoniyatlari o'rtasidagi ichki ziddiyatlarni bartaraf etishga intilish asosida shakllanib boradi. Innovatsion sohaga taalluqli muammolarni ilmiy jixatdan tahlil qilishga uringan turli xil olimlarning ilmiy ishlarini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, ma'lum bir innovatsiyaning muvaffaqiyati va xarakteri oqibat natijada konkret tarmoqning, regionning, mamlakatning, qolaversa korxona va tashkilotlarning innovatsion potentsiali qandayligiga bog'liq bo'ladi. Ilmiy-texnika raqobatining globallashuvi sharoitida, innovatsion menejmentning ahamiyati kuchayib boradi. Uni tashkilotni rivojlantirishni ta'minlovchi faoliyat sifatida baholash kerak.

Innovatsiyalar va innovatsion boshqaruvga nisbatan oshirilgan e'tibor hozirgi jamiyatning, hayotining o'zi tomonidan talab qilinadi, axir innovatsion jarayonlarni yangi mahsulotlar va yangi texnikada ro'yobga chiqishi uning sotsial – iqtisodiy rivojlanishining asosi bo'ladi.

Innovatsiya – bu yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (tovar, ish, xizmatlar) ko'rinishdagi innovatsion faoliyatning yakuniy natijasidir.

Innovatsion jarayon - innovatsion o'zgarishlarni tayyorlash va amalga oshirishdan iborat bo'ladi va yagona bir butunni tashkil qiluvchi o'zaro bog'langan pallalardan tashkil topgan. Bu jarayonning natijasida amalga oshirilgan o'zgarishlar natijasida innovatsiya paydo bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi innovatsiyasi deb - MT tashkilotida ta'lim tarbiya va boshqarishning yangi usullarining yaratilishi, maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatiga tadbiq etilishi, tizimni yuritishda marketing yoki tashkiliy usullarning joriy qilinishi, yangi ish o'rinlarini tashkil etishni yoki tashqi aloqalarni o'rnatilishini o'zida mujassamlashtirgan faoliyatning yakuniy natijasi tushuniladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvida oxirgi uch yilda bir qancha innovatsiyalarni kuzatishimiz mumkin. Masalan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-son Farmoni¹, 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3261-son², 2018-yil 5-apreldagi "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish

¹ <https://lex.uz/docs/-3362886>

² <https://lex.uz/docs/-3334234>





chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3651-sonli³ va 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3955-sonli⁴ qarorlarini keltirishimiz mumkin.

Innovatsion faoliyat - deganda, iqtisodiy faoliyat sohasidagi jarayonlarni radikal tarzda o'zgartirishga yordam berishi mumkin bo'lgan biron bir yangilikni yaratish tushuniladi. Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion faoliyat - bu tashkilot moddiytexnika bazasini va ta'lim-tarbiyani yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g'oyalar va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan jarayonlar majmuasi tushuniladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni tashkil etuvchi jarayonlar quyidagilar: - g'oya va ishlanmalar yaratilishi; - qo'shimcha pul mablag'larni yaratilishi; - innovatsion mahsulot (yangi ta'lim tarbiya va xizmat turlari namunalari, dasturiy ta'minot va boshqalar)ni yaratilishidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining innovatsion faoliyati natijasida yuzaga kelgan g'oya va ma'lumotlarni tayyor turdagi ta'lim-tarbiya va xizmatlar holatiga keltirish mobaynida g'oyani rivojlantirish, uni moliyalashtirish, sinov guruhlarini tashkil etgan holda ularda yaratilayotgan ta'lim-tarbiya va xizmatlarni tadbiq etish hamda yakuniy bosqichda tayyor yangi ta'lim-tarbiya va xizmatlarga ega bo'lish jarayonini tashkil etish, uni qo'llab-quvvatlanishida, moliyalashtirishni tashkil etish uchun albatta boshqaruvning roli nihoyatda katta.


Yuqoridagilarni hisobga olgan holda biz innovatsiyalarni yaratishda innovatsion menejmentning zarurligini ko'rishimiz mumkin. Innovatsion menejment bu - innovatsion jarayonlar, innovatsion faoliyat, bu faoliyat bilan band bo'lgan tashkiliy tuzilmalar va ularning xodimlarini boshqarish tamoyillari, usullari va shakllarning majmuasidir. Innovatsion menejmentning maqsadi quyidagilardan iborat:

- innovatsion faoliyatni boshqarish;
- strategik boshqaruvga yo'naltirish;
- innovatsiyalarni rejalashtirish;
- innovatsion jarayonlarni boshqarish;
- moddiy va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash;
- malakali kadrlar bilan ta'minlash;
- maqsadni guruhli tarzda shakllantirishdan iborat

Menejmentning har qanday boshqa sohalari kabi innovatsion menejment ham quyidagi ya'ni:

³ <https://www.lex.uz/uz/docs/-3610518>

⁴ <https://lex.uz/docs/-3923110>





- rejalashtirish;
- shartlarni belgilash va tashkil qilish;
- ijro etish;
- rahbarlik kabi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion menejment quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- MT tashkiloti innovatsion faoliyat rejasi va dasturlarini ishlab chiqish;
- MT tashkilotida yangi turdagi ta'lim va tarbiya turlarini yaratish va amaliyotga joriy etish jarayonini kuzatib borish, muhokama qilish;
- tashkilot miqyosida umumiy innovatsion siyosat yurgizilishini ta'minlash;
- innovatsion jarayonlarni moliyaviy va moddiy resurslar bilan ta'minlash;
- tashkiliy tuzilma oldida turgan innovatsion muammolarni kompleks tarzida hal etmoq uchun maqsadli guruhlarini tuzish. Innovatsion menejmentning asosiy vazifalarini amalga oshirishda alohidagi o'zaro aloqa va mantiqiy izchillik vujudga keladi.

Innovatsion menejmentda Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi.

- yangi g'oya va ma'lumotlarni tahlil etish hamda maqsadni belgilash;
- qo'yilgan maqsadga erishish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish va natijaga erishishni tashkil etish;
- xodimlar innovatsion faoliyatini rejalashtirish va rahbarlik qilish;
- MT tashkiloti innovatsion guruh pedagog kadrlarini qo'llab-quvvatlash;
- tashqi va ichki muhitni nazorat etish.

Rahbarning Yangi g'oya va ma'lumotlarni tahlil etish hamda maqsadni belgilashda MT tashkiloti rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi.

- MT tashkiloti pedagog kadrlar g'oyalarini umumlashtirish;
- yangi g'oya va ma'lumotlarni umumlashtirish tahlil etish guruhlarini tuzish;
- umumlashtirilgan g'oyalarni ta'lim-tarbiya va xizmatlar kesimida guruhlariga ajratish;
- ishchi guruh ishtirokida g'oya va ma'lumotlarni tahlil etilishini tashkil etish va nazorat qilish;
- tahlil natijalari asosida maqsadni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-son Farmoni





2. 2017-yil 9-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-3261-son qarori
3. 2018-yil 5- apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag’batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-3651-son qarori
4. 2018-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-3955-sonli qarori
5. Aliyeva X.X. Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish Scientific progress volume 3 | issue 3 | 2022.
6. Djurayev R.X., Turg’unov S.T. Umumiy o’rta ta’lim tashkilotlarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. –T.: Fan, 2006.
7. Edited by J. Schriewer (Comparative studies series; Volume 10). Discourse Formation in Comparative Education Frankfurt am Main; Berlin; New York; Oxford: Lang, 2000.

